

STRUCTURAL FEATURES OF ONOMATOPIC WORDS IN ENGLISH AND UZBEK

Makhsudova Xosiyatbonu Utkirbek kizi

Teacher of English language

Department of the English language and literature  
Faculty of foreign languages and literature  
Andijan State Institute of Foreign Languages,  
Andijan, Uzbekistan

**ABSTRACT:** It is known that onomatopoeic words in English and Uzbek have phonetic and structural significance. Currently, onomatopoeic (imitation words) is of urgent importance in linguistics. Through this article, we distinguish one-time, multiple-time onomatopoeic words of onomatopoeic origin.

**KEY WORDS:** Onomatopoeic words, imitation words, bam, boom, knock, pop, punch.

**ANNOTATSIYA:** Ma'lumki ingliz va o'zbek tillarida onomatopik so'zlar fonetik va struktural ahamiyatga ega. Hozirgi kunda tilshunoslikda onomatopeya (taqlid so'zlar) dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu maqola orqali onomatopik so'zlarning bir martalik, ko'p martalik onomatopik so'zlarni ajratamiz.

**KALIT SO'ZLAR:** Onomatopeya, taqlid so'zlar, bang'illash, gumburlash, taqillash, urish, tapillash.

Ingliz va o'zbek tillaridagi onomatopik so'zlarning fonetik xususiyatlari alohida bir tadqiqod mavzusi bo'lib, tillar qiyoslanganda bir qator o'xshashliklar va tavofutlarni kuzatish mumkin. Taniqli onomatopeya tadqiqotchisi S.V. Voronin tovushlar xususiyatlarini taqlid qilish nazariyasi uchun katta ahamiyatga ega ekanligidan kelib chiqib o'zining "Fonosemantika asoslari" asarida berilgan tasnifida onomatopeyaning tabiatini biroz boshqacharoq tarzda ochib beradi. U taqlidning tasnifiy mansubligini aniqlashda semantik mezonni rad etib, ular tomonidan uzatiladigan harakatni uzunlik va qisqalik, bir lahzalik va davomiylik, chastota nuqtai nazaridan tavsiflaydi. S.V. Voronin taqlid so'zlarni tovushiga ko'ra uch sinfga: bir martalik, davomli va takror sodir bo'luvchi onomatopeyalar turkumiga ajratganidan so'ng, biz ishimizda ingliz va o'zbek tilidagi onomatopik so'zlarning tipologiyasi – ularning turlari va modellarini ko'rib chiqdik.

**Instantlar**

Instantlar (ya'ni zumda sodir bo'ladigan, lahzalik tovushlarga taqlid so'zlar) ikkala tilda ham sinf sifatida va bir vaqtning o'zida tur sifatida tavsiflanadi; zarbani, ya'ni inson qulog'i tomonidan akustik zarba sifatida qabul qilinadigan "ultra qisqa", "lahzalik" shovqin yoki ohangni belgilaydi. Ushbu bo'linishda, ko'rinib turganidek, yana bir mezon mavjud, ya'ni tovushning akustik (har qanday xonada tovush tarqalishining xususiyatlari, shakli, materiallari va boshqalar) xususiyatlari (shovqin yoki ohang sifatida). Endi ingliz va o'zbek tillari materiallari bo'yicha bir martalik ohang va shovqinni bildiruvchi tovushlarga misollarni ko'ramiz:

**Misollar:**

Bam	– bang'illash
Blast	– portlash
Boom	– gumburlash
Boop	- guppillash
Burst	– portlash
Click	– tiqqilash
Crash	– qarsillash

Explode	– portlash
Knock	– taqillash
Pop	– tapillash
Punch	– urish
Slam	– qarsillash
Spark	– chaqnash
Whip	- savalamoq, qamchilamoq

**Masalan:**

- In the morning Oliver was awakened by a loud **kicking** outside the shop door, which was repeated about twenty-five times, furiously and passionately, before he could even put on his clothes.

- Ertalab Oliver do‘kon eshigidagi kuchli **taqillashdan** uyg‘ondi; u kiyinib bo‘lguncha, g‘azabli va sabrsiz taqillatish yigirma besh marta takrorlandi.

«The plop of a fish» - James Joyce, «The Dead»

• Context: This line describes the sounds heard by the characters during a fishing trip.

• Meaning: The word “plop” imitates the sound made by a fish when it jumps or is caught, creating a sense of excitement and activity in the scene.

- The book fell to the ground with a loud **thump**.

- Kitob **tap** etib yerga tushdi.

- The man fell into the lake with a knowing **splash**.

- Erkak **shalop** etib suvga tushib ketdi.

- The coin fell to the river with a **plop**.

- Tanga daryoga **chalop** etib tushdi.

Ikki tildan misollar yordamida xulosa qilishimiz mumkinki, lahzalar tarkibidagi undoshlar orasida portlovchilar ustunlik qiladi. Lahzalar bilan ifodalangan tovushlar ham, lahzalar tarkibidagi portlovchi tovushlar ham bir xil akustik turkumga – zarbalarga tegishli ekanligini hisobga olsak, bu tabiiydir.

Xulosa qilib shuni aytadigan bo‘lsak onomatopik so‘zlar ingliz va o‘zbek tillarida ko‘plab uchraydi. Nutqimizda bunday so‘zlar uchrasada buni anglash biroz murakkab. Bunday so‘zlar o‘zbek va ingliz tillarida turlicha tarjima qilinadi va bunday tarjima ikkala til uchun ham tabiiydir.